QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.227

O’QITUVCHINING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

X.Usmonova.
Qo’qon Davlat Universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’qituvchining metodik kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy nazariyalar tahlili keltirilgan. Shuningdek maqolada o’qituvchining metodik kompetentligini negizida aks etuvchi bir qator xususiyatlar haqida bayon etilib, metodik kompetentlikni rivojlantirishga oid mualliflik tavsiyalari keltirilgan.

Kalit so’zlar: Metodik kompetentlik**,** metodik kompetentlik qobiliyati, metodik kopetentlikni rivojlantirish xususiyatlari, metodik kompetentlikni rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье представлен анализ научных теорий по развитию методической компетентности педагога. Также в статье описан ряд особенностей, отражающих в основе методическую компетентность педагога, приведены авторские рекомендации по развитию методической компетентности.

Ключевые слова: методическая компетентность, способность к методической компетентности, особенности развития методической компетентности, развитие методической компетентности.

Abstract: This article presents an analysis of scientific theories on the development of a teacher's methodological competence. The article also describes a number of features reflecting the teacher's methodological competence, and provides the author's recommendations for the development of methodological competence.

Keywords: methodological competence, the ability to methodological competence, the peculiarities of the development of methodological competence, the development of methodological competence.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o’qituvchi va tarbiyachilarning metodik kompetentligini rivojlantirish modellarini takomillashtirish, o’qituvchilarda ta’lim jarayonining intensiv samarasini ta’minlash maqsadida kasbiy kompetentsiyalar negizida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirish, ta’lim tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, o’qitishning sifat va samaradorligini rivojlantirish bo’yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. SHu bilan birga, kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish, o’qituvchining

didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish, ularda ta’lim jarayonini motivatsion extirosni shakllantirish kompetetsiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta’lim tizimida intensiv va motivatsion extirosni vujudga kelishida asosiy rolni o’qituvchi zimmasida ekanligi barchaga ma’lum. Ushbu murakkab psixologik jarayonni tashkil eta olish esa o’qituvchining metodik kompitetligi asosida sodir bo’ladi. Metodik kompetentlik tushunchasi o’qituvchining didaktik qobiliyati sifatida namoyon bo’lar ekan, ushbu qobiliyatning tarkibiy qismi sifatida o’qituvchi o’zining fanini chuqur bilishi bilan birga o’qitish metodikasini ham muvaffaqqiyatli o’zlashtirmog’i, fan yangiliklari bilan birga ta’lim sifatini oshirish maqsadida turli tuman usul va vositalardan samarali foydalanmog’i lozim.

O’qituvchining metodik kompetentligi tushunchasi kasbiy kompetentlik tushunchasi negizida shakllandi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.

Metodik kompetentlik pedagogik faoliyatda muhim tushuncha bo’lib, o’qituvchining o’quv jarayonini samarali tashkilrtish, metodlarini to’g’ri tanlash va qo’llash, dars mazmunini pedagogik maqsadlarga muvofiq shakllantirish bo’yicha bilim, ko'nikma va malakalar majmunidir,

“Metodik kompetensiya” tushunchasi pedagogika fani uchun yangilik emas. Ko’pgina tadqiqotlarda ushbu kontseptsiyaning turli talqinlarini uchratish mumkin. Masalan Tupysheva, Stefanova, Frolovlar shular jumlasidandir.

N.L.Stefanova metodik kompetentsiyani matematika va fan o’qituvchisining metodik madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblaydi va uni metodik ta’lim va dunyoqarash bilan bog‘laydi. VA. Zemtsova, o’z navbatida, metodik kompetentsiyani shaxsning xususiyati sifatida belgilaydi Bundan tashqari, bir qator tadqiqotchilar metodik kompetesiyaning alohida turlarini tafsiflaydilar. T.S.Polyakova tarixiy-metodik kompetensiya tushunchasini fanga kiritadi. I.V.Drobysheva differensial metodik kompetensiyalar tushunchasining mohiyatini ochib beradi. T.B.Rudenko didaktik-metodik-kompetensiya tushunchasini tahlil etadi.[157]

M.Muslimov, M.Usmonboyevalarning tadqiqotlarida m[158]etodik kompetentlik-pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to’g’ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo’llay olish, vositalarni muvaffaqqiyatli qo’llay olishdir deb tariflanadi.

N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligi negizida metodik kompetentlikni shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya’ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo‘lgan

[157] “Metodik kompetentlik bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy o’sishining asosi sifatida”.O’.S.Abdug’aniyevich. https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1269

[158] “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” .M.Muslimov.Toshkent 2018.

ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o‘qituvchi axborot va ma’lumotlarni uzatishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to‘siqlarni, jismoniy va aqliy zo‘riqishlarni yenga olishlik, o‘zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko‘nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko‘nikmalari), hissiy sifatlar (o‘z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishi, o‘zining aniq hislari (qahr, g‘azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag‘rurlik, qo‘rqish, ko‘ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishi hamda o‘z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o‘z–o‘zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o‘z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o‘z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatlari tashkil etishini ta’kidlab o‘tadi[159].

O’qituvchining metodik kompetentligi negizida ta’lim va tarbiyada avvalo sifat va samaradorlik tushunchalari birlashadi. O’qituvchining zamonaviy fan va metodlardan habardorligi, ularni mazmunini anglashi, o’quv jarayoniga tadbiq eta olishi, o’z fanining metodikasini chuqur anglagan holda ulardan muvaffaqiyatli foydalana olishi mashg’ulotda ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi o’rtasidagi hamkorlikni ijobiy iqlim asosida kechishiga sabab bo’ladi.

Metodik kompetentlik qobiliyatini o’zlashtirishda o’qituvchi avvalo ta’lim nazariyasini (didkatika) chuqur bilmog’i lozim. Ta’lim metodlarini tanlashga oid yondoshuvlar va talablarni anglagan holdagina o’qituvchi o’quv mashg’uloti uchun o’quv metodi va vositalarni maqsadli tanlay oladi.O’Yuldoshevning tadqiqotlariga ko’ra ta’lim metodlari va vositalarini tanlash quyidagilarni o’z tarkibida aks ettiradi:

— o‘quvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish, ta’lim berish, ma’lumotli qilish umumiy maqsadlariga;

— o‘quv predmeti va mavzu mazmuniga;

— aniq o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi xususiyatlariga;

— aniq bir darsni maqsad va vazifasiga hamda mazmuniga; — materialni o‘rgatish uchun ajratilgan vaqtga;

— o‘quvchilarni yosh xususiyatlariga hamda ularni bilish imkoniyatlari darajalariga va o‘quvchilarni tayyorgarlik darajalariga;


— o‘quv muassasasini moddiy, uslubiy ta’minlanganligiga;

— o‘qituvchini xususiyat va imkoniyatlariga, nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasiga, uslubiy, kasbiy mahoratiga, shaxsiy sifatlariga bog‘liq[160].

O’qituvchining metodik kompetentligi negizida quyidagi xususiystlarni aks etadi:

[159] “KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH”. https://lib.bimm.uz/items/download/11372

[160] . “Umumiy pedagogika”. O’.J.Yo’ldoshev. Toshkent 2017-yil.



Bizningcha esa metodik kompetentlik bu-ta’lim soxasida pedagogning o’z fanini o’qitishda metodik yondoshuvlarni samarali qo’llay olish qobiliyatini anglatadi. Metodik kompetentlikni rivojlantirish uchun o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishi muhim. Quyidagi usullar bu jarayonda yordam berishi mumkin:

- **Doimiy o‘qish va o‘zini rivojlantirish** – Pedagogika va metodika bo‘yicha zamonaviy adabiyotlarni o‘rganish, yangi tadqiqotlar va innovatsion usullardan xabardor bo‘lish.
- **Tajriba almashish** – Tajribali o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish, kasbiy jamoalarga qo‘shilish.
- **Texnologiyalardan foydalanish** – Interaktiv vositalar va onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish, ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish.
- **O‘quv jarayonini tahlil qilish** – Darslarni baholash, talabalarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish va metodik yondashuvlarni takomillashtirish.
- **Yangiliklarni sinab ko‘rish** – Yangi pedagogik metodlarni sinovdan o‘tkazish, dars jarayonida kreativ va interaktiv yondashuvlarni qo‘llash.
- **Refleksiya va tahlil** – O‘z faoliyatini doimiy ravishda baholash, qanday metodlar samarali ekanligini aniqlash va ularni takomillashtirish.

Metodik kompetentlikni rivojlantirish davomiy jarayon bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy mahorati va ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi. Eng muhim jihati – o‘quvchilarga qiziqarli va samarali ta’limni taqdim etish!

Xulosa qilib aytganda metodik kompetentsiya bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy o’sishi uchun mustahkam poydevor bo’lib xizmat qiladi. U o’qitish jarayonlarini samarali rejalashtirish, amalga oshirish va baholash uchun zarur bo’lgan bilimva ko’nikmalarni o’z ichiga oladi. Kuchli metodik kompetentsiyaga ega bo’lgan o’qituvchi o’quvchilarining individual ehtiyojlarini qondira oladi, izchil dars rejalarini ishlab chiqadi, o’quvchilarning yutuqlarini to’g‘ri baholaydi va rivojlanayotgan ta’lim amaliyotiga

moslashadi. Bo’lajak o’qituvchilar o’z metodik kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirib borish orqali ta’limning doimiy rivojlanib borayotgan sohalarida samarali faoliyat olib boorish imkoni vujudga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Metodik kompetentlik bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy o’sishining asosi sifatida”.O’.S.Abdug’aniyevich. https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1269

2.“Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” .M.Muslimov.Toshkent 2018.

3.“Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish”. https: //lib.bimm.uz/ items/download/11372

4. “Umumiy pedagogika”. O’.J.Yo’ldoshev. Toshkent 2017-yil.

5. Qodirjonovna, Usmonova Xafiza. "ERGONOMIK YONDASHUVSIZ METODIK KOMPETENTLIK: BO ‘LAJAK TARBIYA FANI O ‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMIDAGI CHEGARALAR VA INTEGRATIV YECHIMLAR." *International Congress on Economics, Management and Business Studies*. Vol. 1. No. 1. 2026.

6. Usmonova, Xafiza. "METODIK KOMPETENTLIK TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILMASI." *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar* 3.1 (2026): 306-309.

7. Kh, Usmanova. "The Components of Pedagogical Communication Are Its Tasks." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1254-1258.

8. Baxodirovna, Muminova Gulasal. "DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SKILLS OF STUDENTS OF THE DIRECTION OF HIGHER EDUCATION PRESCHOOL EDUCATION." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036* 11.11 (2022): 508-510.

9. Malikovna, Nazirova Guzal, and Muminova Gulasal Bakhodirovna. "EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).

10. Muminova, Gulasal Bakhodirovna. "MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR TA’LIM-TARBIYASINING AYRIM MUAMMOLARI." *Oriental Art and Culture* 6.5 (2025): 409-411.

11. Zunnunova, N. "CASES THAT NEGATIVELY AFFECT THE PREPARATION OF CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.5 (2023): 1071-1076.

12. Zunnunova, N. "PRIORITIES FOR PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL." *International Bulletin of Applied Science and Technology* 3.5 (2023): 1046-1050.

13. Зунунова, Н. "НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА". *ОБЗОР АЗИАТСКО-ТИХООКЕАНСКОГО ЖУРНАЛА МАРКЕТИНГА И МЕНЕДЖМЕНТА ISSN: 2319-2836 Импакт-фактор: 8.071* 12.10 (2023): 91-98.

14. Каримова, М. "Образ психолога и педагога в современном образовании." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036* 11.09 (2022): 272-274.

15. Каримова, М. Х. "ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ." *Экономика и социум* 12-2 (127) (2024): 1265-1268.

16. Xalimovna, Karimova Mukarramxon, and Botirova Mukarramxon Mo‘ydinovna. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING MAZMUNI VA AHAMIYATI." *WORLD OF PHILOLOGY* 5.4 (2026): 12-15.

17. . Muhiddinovna, Meliboyeva Shohista, and Mamadjanova Xushruy Shavkatovna. "METHODS OF DIAGNOSIS IN PREPARATION OF CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036* 11.06 (2022): 185-191.

18. 2. Мамажанова, Хушруя Шавкатовна. "TEACHING MATH TO PRESCHOOLERS." *Актуальные научные исследования в современном мире* 11-8 (2020): 27-31.